
# TURKIY XALQLAR ADABIYOTI: ADABIY ALOQALAR, ADABIY TA'SIR VA TARJIMA

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-NAZARIY
ANJUMAN MAQOLALAR TO'PLAMI

# TÜRK XALQLARININ ƏDƏBİYYATI: ƏDƏBİ ƏLAQƏ, ƏDƏBİ TƏSİR VƏ TƏRCÜMƏ

BEYNƏLXALQ ELMI-NƏZƏRI
KONFRANS MƏQALƏLƏR TOPLUSU



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI,**
**INNOVATSION RIVOJLANISH VAZIRLIGI**
**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI,**
**OZARBOYJON MILLIY BILIMLAR AKADEMIYASI**
**NIZOMIY GANJAVIY NOMIDAGI ADABIYOT INSTITUTI,**
**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI,**
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI,**
**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

# “TURKIY XALQLAR ADABIYOTI: ADABIY ALOQALAR, ADABIY TA’SIR VA TARJIMA”

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

# MATERIALLARI

**Toshkent-2022**

# ANBAR OTIN IJODIDA HURLIK MASALASI

***Nasiba JO‘RAQULOVA,***
*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori*
*instituti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya**

Maqolada o‘zbek shoirasi Anbar Otin ijodining badiiy mazmun-mohiyati haqida fikr bildirilgan. Shoiraning haqsizlik, zulm, zo‘ravonlik kabi illatlar tanqid qilingan she’rlari tahlil qilinar ekan, ayniqsa, xotin-qizlar erksizligi, uning yosh avlodga salbiy ta’siri xususida bildirilgan fikrlariga alohida e’tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** isyon, hurriyat, axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, milliy g‘urur.

**Аннотация**

В статье посвященной творческому наследию узбекской поэтессы Анбар Отин глубоко осмыслены идеалогическое направление и его содержание. Вместе с тем подробно проанализированы её стихотворение, критикующие бесправие, насилие и унижение. Особенно, подвергнуты жесткой критике, такие унижения как бесправие женщин и его отрицательное влияние на молодое поколение.

**Ключевые слова:** мятеж, свобода, духовное наследие, патриотизм, национальная гордость.

**Annotation**

In the article devoted to the creative heritage of the Uzbek poetess Anbar Otin, the ideological direction and its content are deeply comprehended. At the same time, her poem, which criticizes lawlessness, violence and humiliation, is analyzed in detail. Especially, such humiliations as the disempowerment of women and its negative impact on the younger generation are subjected to harsh criticism.

**Keywords:** rebellion, freedom, spiritual heritage, patriotism, national pride.

Ma’rifatparvar shoira Anbar Otin Qo‘qon adabiy muhitida alohida mavqega ega. Uning ijodida favqulodda dadillik, qaramlikka qarshi oshkora isyon, ruh ozodligiga intilish hislari yetakchilik qiladi. Zero, shoiraning butun umri qayg‘u-hasratda o‘tdi. Bu g‘am, eng avvalo, el-yurt ahvoli, millat fojeasi bilan bog‘liq ediki, Anbar Otin devoni debochasida o‘z holatini shunday ta’riflaydi: “Zamonani norasoligi va xalq ko‘rgan zulmu taaddilarni o‘z ko‘zi ilan ko‘rib mushohida etib el va yurt holig‘a yig‘lag‘on va quvvati etganicha nafis til ila munojot qilg‘on kamina zaifai munglig‘ Anbar oy binti Farmonqul Marg‘ilonidurman” [1, 13]. Anbar Otin merosini kuzatish asnosida ko‘rish mumkinki, shoira zulm, haqsizlikka aslo toqat qilolmaydi. Bu, albatta, shoira yashagan ijtimoiy muhit bilan bog‘liq.

Ma’lumki, Anbar Otin 1870-1914/1917 yillarda yashab, ijod qildi. XIX asr 2-yarmi Turkiston tarixidagi eng murakkab davr bo‘lganligi ma’lum. Xonliklardagi siyosiy ziddiyatlar, mazlum xalqning xoru zorlikda yashayotganligi yetmagandek, Rusiya bosqinchilarining yurtni bosib olishi,bir qarashda do‘stdek ko‘ringan istilochilarning mahalliy aholini kamsitish siyosatini qo‘llaganligi, shubhasiz, davr ijodkorlari qarashlarida aks etdi. Anbar Otin bu haqda shunday yozadi:

*Qo‘shulib mulki Farg‘ona o‘rusg‘a bu saro bo‘ldi,*
*O‘rus o‘zbek elig‘a bir tug‘ushg‘ondek og‘o bo‘ldi.*
*O‘ruslar ishda pishg‘on vajhidin hushyordur oncha,*
*Raiyat foydasig‘a so‘zlamoqqa rahnamo bo‘ldi.*
*Valekin hukmronlik vajhidin og‘ir bo‘lub ishlar,*
*Yaroqlar ikki xil, zarbidin og‘riq bedavo bo‘ldi.*
*Oliqlar bir qator erdi, to‘lashga bo‘lmadi darmon,*
*Soliqlar qo‘shqator o‘lg‘ach el emdi mosuvo bo‘ldi.*
*Quvonib ibtidoda o‘yladi el, “zulm ketdi”, deb,*
*Kelib zolim, mulozim birla tezda hampo bo‘ldi.*
*Buni ko‘rgach bechora el yana ma’yusu mahzundir,*
*Sabab shul erdi, el ichra davomi mojaro bo‘ldi [1, 27].*

G‘azalning kirish qismida shoira mustamlakachilik siyosatining maqtovini keltirayotganday tuyuladi. Rusiya istilochilarining o‘zlarini oddiy halq manfaatlarini himoya qilayotgandek ko‘rsatganlari, ularni qullikdan ozod qilish uchun kelganday harakat qilganlari manbalarda keltirilgan. Adabiyotshunos olim Begali Qosimov qaydlarida shunday ma’lumotga duch kelamiz: “Rusiya ma’murlari tomonidan erli savdogarlarni himoya qilish, ilm-ma’rifatni yoyish, o‘lkani dunyoga olib chiqish kabi kishilarni o‘ziga rom qiladigan va’dalar tez-tez tilga olinib turdi. Aksariyat rus amaldorlari xalqdan o‘zlarini baland tutsalar-da, Chernyaev, Ivanov, Kuropatkinlar o‘zlarini sharqliklarga moyil ko‘rsatib, mahalliy kishilarning suhbat va yig‘inlariga aralashib turganlari ma’lum. Lekin g‘ayrirus millatlarga nopisand munosabat chor hukumatining siyosati darajasiga ko‘tarilgan edi” [4, 16]. Anbar Otin shu haqiqatni teran nigoh bilan anglay olgan ijodkor edi. G‘azalning keyingi bandlarida shoiraning asl maqsadi aniq ifoda qilinadi.

Xalq asli og‘ir ahvolda edi. Mahalliy hukmron tabaqa zulmidan bezgan aholi istilochilardan adolat kutdi. Poymol bo‘lgan haq-huquqlar tiklanishiga umid qildi. Temir yo‘l qurilishi, rus-tuzem maktablarining ochilishi va yana bir qancha fan-texnika yangiliklarining olib kirilishi, albatta, istilochilarning “o‘zbek elig‘a” cheksiz muruvvati bo‘lib ko‘rinadi, lekin endi ruslashtirish siyosatiga, din, til, milliy qadriyatlar kamsitilishiga ko‘nikib yashashdek xorlik boshlanadi. Bu eng og‘ir musibat edi. Anbar Otin “Noib to‘ra ayoli Yekoterina” she’rida rus

amaldorlarining olib borayotgan harakatlariga keskin e’tirozini bildirar ekan, bu yurt ulug‘ zotlar beshigi ekanligini uqtirmoqchi bo‘ladi:

*Singiljon hamsoya bo‘lding, sirni pinhon etmagil,*
*O‘zbeku g‘ayriya bu deb, millat isyon etmagil.*
*Pokiza ustolda o‘tirmoq ajab bergay shukuh,*
*Bu faqat bizlarg‘a xos deb fikri nodon etmagil.*
*O‘zbek ahlidin nechand olim chiqqandir bilsangiz,*
*Shak kelturub ilmimizg‘a fe’li shayton etmagil [1, 54].*

Anbar Otinning yoshligi qiyinchilik bilan o‘tdi. U Dilshodi Barno maktabida tahsil oldi va 14 yoshida majburan turmushga berildi. Maktabdagi tahsil esa o‘z-o‘zidan to‘xtatildi. Lekin Anbar Otin o‘qish jarayonida ustozlari e’tiboriga tushib, adabiyot sirlaridan to‘liq boxabar bo‘lishga ulgurgan edi. Dilshodi Barno unga shunday ta’rif beradi: “Navoiy, Fuzuliy, Hofiz, Bedil nazmig‘a oshufta bo‘lg‘onlardin Anbar oy sakkiz yoshidin o‘n to‘rt yoshig‘acha ta’limi adab mashg‘uli erdi. O‘z yozg‘on nazmlarni ko‘rsatur erdi. Ani saliqasig‘a tan berur erduk. Ul qiz ulug‘ shoira bo‘lub yetushur, deb umidim bor” [3, 16]. Darhaqiqat, Anbar Otin yetuk shoira edi. Undagi qat’iyat, millat taqdiri uchun kuyinish hislari shu davrda ijod qilgan shoirlarning ko‘pchiligida uchramaydi. Anbar Otin shoirlikni, eng avvalo, xalq dardini tushunish va haq so‘zni ayta olishda, deb bildi. U o‘z safdoshlariga ham shunday talab qo‘ydi. Oddiy xalq zo‘rg‘a kun ko‘rayotgan davrda ulug‘ insonlarni madh qilib she’r yozish uning uchun qabul qilib bo‘lmas holat edi:

*She’r yozsangiz, xaloyiq holidin mavzu eting,*
*Ko‘p ulug‘larni madh etmoq erur bu isrof.*
*Avvalo, o‘ylang el ichra zindagi qay xildadur,*
*Ikki yoqlik zulmni, siz aylang hamesha e’tirof [1, 48].*

Turkiston tariqat peshvolari, ulug‘ avliyolar, mutafakkir allomalar, arslonkelbat bahodirlar yurti bo‘lgan. Undagi jasur o‘g‘lonlar jur’ati butun olamga ibrat qilib ko‘rsatsa arzigulik. Bu buyuk zotlarning eng asosiy xislati, shubhasiz, ilmu ma’rifat sohibi ekanligidir. Xalq rahnamolari, mard himoyachilarning keng tafakkur sohibi bo‘lganlari xalq dostonlarida, ayniqsa, yaqqol ifoda qilinadi. Shu o‘rinda “Alpomish” dostonidagi bir voqeani esga olsak. Hakimbek etti yoshida Alpinbiy bobosidan qolgan o‘n to‘rt botmonli yoyni ko‘tarib, Alpomish nomini olganidan so‘ng otasi bilan suhbat qiladi. Boybo‘ri o‘g‘lidan kishi nimadan baxilu, nimadan saxiy bo‘lishi haqida so‘raydi. Alpomishning javobi esa hayratomuz edi: “Vaqt-bevaqt birovnikiga mehmon kelsa, otini ushlab, joyi bor bo‘lsa, ko‘nglini hushlab jo‘natsa, bul ham saxiy; agar joyi bor turib, joy yo‘q deb qo‘ndirmay jo‘natsa, bul odam baxil. Vaqt-bevaqt kishi bir mozorotning qabatidan o‘tsa, chap oyog‘ini uzangidan chiqarib, mozordagi odamlarning haqiga duo qilib o‘tsa, bul

ham saxiy, agar bunday qilmasa, baxil” [3,12]. Anbar Otin zamon farzandlarining bobolaridek jasorat va ma’rifat egasi bo‘lishlariga juda orzumand:

*Ey bolam, Xayrullaxon maktab ochibdur, boringiz,*
*Albatta, shu yangi maktabda o‘qungiz, boringiz.*
*O‘rgatarmish turk tilida har ilmdin borini,*
*Kelgusida shu bilimlar birla bo‘lg‘ay koringiz [1, 24].*

Turkiston istilo qilindi, xalq mulki talon-taroj bo‘lmoqda, inson qadr-qimmati poymol qilingan. Bu qora kunlardan chiqishning birgina yo‘li bor. Millat farzandlarining bilimli bo‘lishi, ilm o‘rganishi. Ma’rifatli inson erkin, hur fikrli bo‘ladi, muhimi faqat Yaratganga qullik qiladi. Allohga bandaligini anglagan odam hech kimdan qo‘rqmaydi, yurgan yo‘lidan hadiksiramaydi, zulm, zo‘ravonlikka ko‘nib yashamaydi. Anbar Otin shuning uchun ham ilmu irfon sohiblarini behad ulug‘laydi:

*Kimiki ma’rifatni etsa e’zoz,*
*Ani irfon etar, albatta, mumtoz.*
*O‘zingni elga xizmatkor yetkiz,*
*Ishing anjomiga yetkuncha yetkiz [1, 74].*

Biroq shoira xalqni ozodlikka boshlab boruvchi, tom ma’noda elga qalqon bo‘luvchi avlodlar yetishib chiqmayotganligidan cheksiz qayg‘uga tushadi. Uning “Qarolar falsafasi” asarida azaldan mavjud bo‘lgan mukammal tarbiya usullarining yo‘qolib ketganligi aniq ko‘rsatiladi, sabab-oqibatlari izohlanadi. Anbar Otin, eng avvalo, o‘z davrining ijtimoiy ahvolini bayon qilar ekan, uning xavotiri asosli ekanligiga amin bo‘lamiz: “Davlat va ujbu riyo kayfiga mustag‘raq bo‘lg‘on erlar misoli bahoyim faqat o‘z nafsi-shahvoniyatini qanoatlantirmoq ilan beparvo va ul gulchehralar ahvolig‘a e’tibor bermaslar. Ichkarida eru nafs taloshub zulm qilg‘on xon oyim va bek oyimlar esa, hech insofdin bexabar, ablah, vahshiy holig‘a kirgondurlar” [1, 93]. Oila jamiyat rivoji va kelajak farovonligini ta’minlaydigan eng katta kuch. Farzand ilk tarbiyani ota-ona bag‘rida oladi. Millat umidi bo‘lgan bu jamiyatda esa ahvol achinarli. Kambag‘al, mazlum qatlam tirikchilik g‘amidan ortib, bolalarini ilmli qilishga imkon topa olmaydi. O‘ziga to‘q, oliynasab oila erkaklari maishat yo‘lida ovora, ayollari esa mayda muammolar bilan andarmon bo‘lib, asosiy vazifani esdan chiqargan. Buning natijasida jamiyatda chirkin illatlar ildiz otib bo‘lgan. Asarda bu muammolar keskin tanqid qilinadi, ijtimoiy ahvol juda achinarli ekanligi ta’kidlanadi. Anbar Otin qachondir farovon kunlar kelishiga ishonadi va dorilomon kunlarni shunday tasavvur qiladi: “Bir zamoni bo‘lurki, kamina mushtipar kabi mazlumalar olijanob, orzu qilg‘ondin ziyoda bo‘lur, tamomi mazlumalar yaxshi kun ko‘rib, yaxshi libos kiyib, tinch ro‘zg‘or o‘tkazgan sabab alarni avlodi xatarsiz tavallud o‘lub, yaxshi parvarish topub, xushro‘y va xushxo‘y, botamiz va vatando‘st, serg‘ayratu mehmondo‘st bo‘lib, kamolg‘a yetar.

Ul zamonda borcha xalq sohibjamol bo‘lur”[1, 94]. Anbar Otin, ayniqsa, xotin-qizlarning ma’rifatli bo‘lishini muhim hisoblaydi. Onalar farzand kamolotida eng muhim vazifani bajaruvchidir, har bir buyuk shaxsning iqbolida ularning katta xizmati bor. Ona notinch bo‘lsa, xorlik va kamsitilishdan boshi chiqmasa, haq-huquqlari poymol qilinsa, u voyaga yetkazadigan bolalar ham qo‘rqoq, kaltabin, jur’atsiz bo‘lishi kunday ravshan. Anbar Otin zamondosh ayollarning taqdiridan tashvish chekadi. Ularning hech bir erkinlikka ega emasligi, ilm olishga imkoniyati yo‘qligi uni xavotirga soladi. Ayollar aslida qanday yashashi kerakligi haqidagi orzu-umidlarini kelajak o‘y-xayollari orqali bayon qiladi: “Ul vaqt qizlar ilmi dunyoviy tahsilig‘a muyassar bo‘lub, urfon taxtida qaror topib, ellar va ulug‘lar safig‘a doxil bo‘lurlar, alar g‘ayrat va mehnatda erlarg‘a hamfo va yovar bo‘lib, obro‘ topib, hurmat va ikromg‘a sazovor bo‘lurlar”[1, 95]. Shoira bir umr millat taqdirini o‘ylab yashadi. U yashagan davrda shoiralarga salbiy munosabat bildirilgan bo‘lsa-da, she’rlari qadr-qimmatini topmasa-da, ijod qilishdan to‘xtamadi. Anbar Otin shunchaki yozmadi, u she’rlarini zamondoshlari qalbiga kirib borishini, ularning dardiga malham bo‘lishini xohladi. Shoira shu qadar vataniga muhabbatliki, har kungi duolarida ham yurt farovonligini so‘rab, iltijo qiladi:

*Saning dargohingga man yolborurman, Rabbano Ollo,*
*Duo qilsam ijobat qil, Elim haqida har yaldo.*
*Maning turgan erimMovarounnahrdir ismi,*
*Xaloyiqni suvingdin benasib etma, Xudovando [1, 40].*

Anbar Otin orzusi, nurli xayollari bugun haqiqatga aylangandek. Shoira ijodini o‘rganish, eng avvalo, hozirgi hayotimiz uchun shukrona keltirish lozimligini o‘rgatsa, shuningdek har doim farzandlar tarbiyasida hushyor turish shartligini ham uqtiradi.Ommaviy axborotlar kurashi ketayotgan bir davrda milliy g‘ururga ega bo‘lgan, o‘zligini topgan, xalq koriga yaraydigan, eng muhimi, el-yurt erkinligi uchun doimo tirgak bo‘ladigan ozod, hur avlod tarbiyasi hamon dolzarbligicha qolmoqda. Tarixni mukammal o‘rganmoq, ma’rifatparvar ijodkorlar merosidan bahramand bo‘lmoq yoshlar uchun katta tarbiya maktabi bo‘ladi. Shu ma’noda, Анбар Отин ijodi ibratomuz va qimmatlidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Анбар Отин. Шеърлар. Рисола. Тўпловчи ва сўзбоши муаллифи: Фотима Ҳусаинова. -Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. 109 б.
2. Анбар отин. Шеърлар. Нашрга тайёрловчи: Л. Қаюмов, Ф.Ҳусаинова. -Т.: Ўзадабийнашр, 1963. 64 б.

3. Алпомиш. Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчилар: Ҳоди Зариф, Тўра Мирзаев. -Т.: Янгийўл, 2019.
4. Дилшод. Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчи: М. Қодирова. -Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. 96 б.
5. Б. Қосимов ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. -Т.: “Маънавият”, 2004. 298 б.

## BADİİYATGA YO‘G‘RİLGAN TARİX HAQİQATİ
## (Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani misolida)

**Hilola RAYİMOVA**
**Qo’qon DPI tadqiqotchisi**

So’z san’ati bo’lgan badiiy adabiyot va tarix haqiqati masalasi necha zamonlardan buyon serqirra masala sifatida yashab kelmoqda. O’tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab, xalqimiz o’tmishiga, tarixiy shaxslar taqdiri va hayotiga qiziqish nihoyatda kuchaydi. Tarixiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirish adabiyotda ustuvor yo’nalishlardan hisoblanadi. Zotan, tarix voqelikning bo’lib o’tgani haqida so’zlasa, badiiy adabiyot uning qay tarzda bo’lganini ifodalab beradi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, adabiyot har qanday tarixiy voqeani shunchaki tasvirlamaydi. Uning markazida inson omili turadi va insoniy tuyg’ularni, uning kechinmalarini tasvirlash hamisha birinchi o’ringa chiqadi. Tarixga bosib o’tilgan yo’l sifatida qaraydigan bo’lsak, uni qanchalik istamaylik orqaga qaytarib bo’lmaydi. Shuning uchun u hech vaqt qo’shib-chatilmasdan tadqiq etilishi va avlodlarga bor haqiqati bilan yetkazilishi kerak.“Badiiylik” sa’atning, jumladan, so’z san’atining asosiy, doimiy xususiyati. Juda qadim zamonlardan buyon hozirga qadar ko’plab olimlar badiiylikni xilma-xil talqinlar, ta’rif-u tavsiflar etib kelishadi. Ammo biror bir olim badiiylik haqidagi mening talqinim to’g’ri, deb da’vo qila olmaydi. Chunki san’atning qoni va joni bo’lmish bu hodisaning sir-sinoatlari beadad bo’lib, u har bir davr adabiyotida, uning turlicha yo’nalish va oqimlarida, har bir milliy adabiyot va uning ayricha olingan namoyondasida o’ziga xos tarzda namoyon bo’ladi, deb ta’kidlaydi adabiyotshunos B.Sarimsoqov.

O’zbek adabiyotida xalqimiz shonli tarixining salobatli zarvaraqlarini teran badiiy tahlil qilishga mo’ljallangan ko’plab yirik hajmli asarlar yaratilgan.Xalqimiz tarixining turli bosqichlarini tasvirlash, Tarixning turli davrlarini tasvirlash, millat ma’naviy hayotida muhim ro’l o’ynagan iste’dod sohiblari shaxsiyatining jamiyat hayotida tutgan o’rni va ahamiyatini ko’rsatib berish, tarixiy voqelik va shaxs